

TARIXIY-MAISHIY RAQSLAR

Valijonova Sug‘diyona Nodirbek qizi
*O‘zDSMI FMF “Xoreografiya jamoalar rahbari”
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Anotatsiya

Ushbu maqolada raqs fani o‘qitilishining 5-6-semestrda o‘tatiladigan “tarixiy-maishiy raqs” fanining paydo bo‘lish tarixi, turli xalqlarda turlicha namoyon bo‘lishi, alohida davr raqslarini ijro etish uslubi va fanning dastlabki saboqlarida talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar

tarixiy-maishiy raqs, san‘at, raqs harakatlari, fan, baletmeyster.

Raqs san‘ati paydo bo‘lgan davrlardan boshlab xalq raqsi san‘atning asosiy janrlaridan biri bo‘lib kelmoqda. U uzoq davrlardan buyon shakllanib, rivojlanib, xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti va urf-odatlarini orqali ifodalanib kelmoqda. Xalq raqsleri mana shuning uchun ham insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va xarakterini yorqin ifodalab bera oladi. Tarixiy-maishiy raqsler ham mohiyatiga ko‘ra xalq raqsi hisoblanadi va xoreografiya san‘atining asosiy ta’lim turlaridan biri hisoblanadi. Uning tarixiy taraqqiyot bosqichlari esa xalq ijodiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham “Tarixiy-maishiy raqs” faniga hech bir qo‘shimchalarsiz tarixiy raqslerning haqiqiy namunalarini joylashtirish lozim. Tarixiy raqs spektaklda o‘tmish davrlarining tirilgan surati sifatida namoyon bo‘ladi. Raqs mavzulari bo‘yicha kompozitsiyalar tuzishda esa asosiy e’tibor ularning mazmun-mohiyatiga qaratilishi zarur. Baletmeysterlarning bunday murakkab ishi maktab davrida tarixiy raqslerni mavhum sxemalar tarzida emas, balki o‘tmish davrlarining jonli, obrazli tipi tarzida qabul qilingan artistlar bilan ishlaganda birmuncha yengillashadi. Tarixiy raqslerda ijro etish shakli va uslubini qayta tiklash juda qiyin. Bunda eng avvalo musiqaga murojaat etish yordam beradi. Shu sababli ham tarixiy-maishiy raqsni o‘rganishda musiqiy materialni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa nafaqat raqsning ritmik tomonini belgilab beradi, balki ijro etish xarakterini ham ko‘rsatib beradi. Bu haqida J.J.Nover shunday degan: “Musiqalarni qulay tanlash – xuddi notiq uchun so‘z va iboralarni tanlash kabi raqsning muhim qismini tashkil etadi”¹ Tarixiy raqs saboqlarida o‘quvchilar haqiqiy xalq kuy-qo‘shiqlarini, o‘tmish davr musiqasining eng yaxshi namunalarini tanlashlari zarur. Qiziqarli qadimiy raqslerning ko‘plari zamonamiz kompozitorlari – Afanasyev, Gliyer, Prokofyevda ijodiga mansubdir.

Inqilob davrlariga qadar xoreografiya maktablarida bal raqsleri o‘rgatilgan. O‘quvchilar vals, polka, ingliz va fransuz kadrili, minuet kabi raqslerni o‘zlashtirganlar

¹ Nover J.J. «Pisma o tanse i baletax» L.-M.1965 g.

va aynan mana shu raqslar ballarda, qabul marosimlarida, teatr kechalarida juda ham urf bo'lgan. Biroq turli tarixiy davrlarning raqs madaniyati haqida tizimli bilimga ega bo'lmaganlar. Ilmiy-metodik asosning yo'qligi shunga olib bordiki, har bir pedagog o'zicha o'rgatgan, ko'pincha uzoq o'tmishning raqs kompozitsiyalariga o'z shaxsiy qo'shimchalarini kiritib yuborgan. Nemis tadqiqotchisi tomonidan tavsiya qilingan sxema maishiy raqs tarixini 3 davrga ajratib olishimizga yordam beradi:

• Birinchi

davri (1600-yilga

• Ikkinchi

ingliz davri (1800-

• Uchinchi

nemis-slavyan

Aslida,

sof mexanik

Faqatgina bir fakt,

Fransiyaning eng

boshqa

ko'chib o'tgani va

ketgani shubha tug'dirmaydi. Ammo bu narsa o'ziga xos raqs madaniyati rivojini to'xtatib qololmagan. Aksincha, uni takomillashtirish tufayli tashqaridan kirib kelgan namunalarni anglab olishga sharoit yaratib bergan. Bu nazariyasining tarafdorlari har qaysi mamlakat o'z davrida yangi raqslar yaratishini unutib qo'yadilar. Ularning uslubi va xarakteri bir qator ijtimoiy-tarixiy omillar bilan belgilanadi. Ayni paytda fransuz xalqi o'z maishiy turmushi, qo'shiqlari va doiraviy raqslar taomillarini bilardi. Xalq tili doimo xalq raqqoslarining yangiliklari bilan boyib, mukammallashib bordi. Saroy ichidagi promenadlar (sayr qilishlar), xorijiy o'qituvchilar olib kelgan repertuar emas, aynan xalq davra raqslari bal xoreografiyasining gullab-yashnashiga ko'maklashdi.

Raqs fanini o'qitilishning 5-6 semestrida o'rgatiladigan "tarixiy-maishiy raqs" bo'limining har bir yangi qismida aktyor va talabalar bilan kichik-kichik suhbatlar qurish, ularni muhim tarixiy voqealar bilan, shuningdek, o'sha davrning maishiy hayoti va liboslari bilan tanishtirib borish foydalidir. Harakat va holatlarni fikran bajarishga o'rgatishni birinchi mashg'ulotlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Juftliklarning ritmik yurishi – bu hali raqs degani emas. Talabalar avvalo barcha harakatlarni ongli bajarishi, qanday raqsga tushayotganini tushunishi, bir-biriga qo'l uzatish qoidalarini va oddiy ta'zim qilishlarni o'zlashtirishi lozim. Mashg'ulotlarda talabalarni qator bo'yicha shaxmat tartibida qo'yish kerak, shundagina har bir talaba pedagogga yaqqol ko'rinadi va bu esa darsning asosiy qonun-qoidalaridan biridir. Bundan tashqari, qatorni o'zgartirib turish kerak: bu har bir talabaning o'zlashtirishini ko'zdan qochirmaslikka, yaxshiroq e'tibor berishga yordam beradi.



davr: Italian qadar)

davr: fransuz-yilga qadar)

davr: hozirgi davri.

bunday bo'linish ko'rinishga ega. ya'ni Italiya va qiziqarli raqslari mamlakatlarga moslashib

Shuningdek, tarixiy-maishiy raqs fanini o'qitish asosan ikki qismdan iborat bo'ladi: birinchi qismidan mashg'ulotlarning asosini tashkil etuvchi "Pas balance", "Pas shosse", "Pas eleve" harakatlari o'zlashtiriladi. Ikkinchi qismda esa o'zlashtirilgan raqs elementlari va mavzularga qarab, talabalarning iqtidoridan kelib chiqib raqs kompozitsiyalariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Talabalar orasida ming afsuski ushbu raqslarga mas'uliyatsizlik bilan yondashadiganlari ham bor. Ijrochilik tajribasini yetarlicha o'rganmasdan, uning nazariyasini bilmay turib kitobdagi tarixiy-maishiy raqsning tavsifini o'qib chiqib uni ijro etish mumkin deb hisoblaydilar. Ijodga bunday ko'r-ko'rona munosabat bilan yondashib, maxsus qo'llanmalar va materiallarni o'zlashtirmaslik esa jiddiy nazariy va amaliy kamchiliklarga olib kelishi muqarrardir. Fanning asosiy maqsadi esa tarixiy raqsning tipik shakllari, ijro etish elementlari va usullari bilan tanishtirish hamda talabalar tarixiy-maishiy raqs motivlari bo'yicha o'zlarining kompozitsiyalarini tuzish mahoratini egallashlariga erishishdir. Barcha raqs uslublari, haqiqiy musiqiy manbalar bilan tanishgach bo'lajak aktyorlar o'zlarining ijodiy palitrasini boyitadi, o'tmish davrlarining manzaralarini qayta yaratishni o'rganadilar. Ular obrazli tasvirlash tarzida tarixiy raqsdan foydalanishga ko'nikadilar. Asosiy e'tibor raqs va sxemalarning qadimiy yozuvlarini o'rganishga qaratiladi. Masalan, o'rganuvchilar fransuz ballari repertuaridagi kontrdanslarni o'qib-o'rganishga ishtiyoq bilan yondashadilar. Mazkur hujjatlar 1764-yilda nashr qilingan, shu sababli ham punkt va chiziqlar bilan belgilangan mavhum sxema va figuralar ustida ancha ter to'kishga, sinchkovlik bilan mehnat qilishga to'g'ri keladi va talabalar raqslarning yurish hamda figuralarini aniqlab olib ularni musiqa bilan moslashtiradilar, shunda jonli va harakatchan shakllar yuzaga keladi. Shundan so'nggina bevosita raqslarni sahnalashtirishga kirishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Tursunova Gulsanem Yusupbayevna "Raqs" o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "NIF MSh", 2021, 114 b.**
2. **Raqs. O'quv qo'llanma. / N.E.Abraykulova: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat. – T.: "Turon-Iqbol", 2018. – 156 b.**
3. **E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2015, 128 bet.**
4. **Vasileva-Rojdestvenskaya M.V – "Istorik-bitovoy tanes" – M. "Iskusstv", 1987 g.**
5. **Voronina I. "Istorik-bitovoy tanes" – M. "Iskusstvo", 1980 g.**
6. **Vasileva Ye. "Tanes" – M. 1968 g.**
7. **Noverr J.J. «Pisma o tanse i baletax» L.-M.1965 g.**